

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK
VA DIZAYN INSTITUTI



"ASDIQLAYMAN"
MRDI rektori
N.B.Sayfullayev
20.06.2019 yil

"KELISHILDI"
O'zBa bosh ilmiy kotibi
F.A.Abidjanova
"20" 06 2019 yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONLARI**

“Chizmatasvir”, “Rangtasvir”, “Kompozitsiya” fanlari

- 5150800- Rangtasvir: turlari bo'yicha**
- 5150801- Rangtasvir (dastgohli)
- 5150802- Rangtasvir (mahobatli rangtasvir)
- 5150803- Rangtasvir (teatr-bezak rangtasviri)
- 5150804- Rangtasvir (filmning tasviri yechimi)
- 5150805- Rangtasvir (multfilm va kompyuter multiflikatsiyasi)
- 5111000- Kasb ta'lifi: 5111032- Rangtasvir (dastgohli)

TOSHKENT - 2019 YIL

Dastur Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o‘quv uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va maqullangan. 2019 yil “18” 06 dagi “10” sonli majlis bayoni

Tuzuvchi:

MRDI Dastgohli rangtasvir kafedrasi professori,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi,
O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, akademigi
S.A. Abdullaev

Taqrizchilar:

Toshkent arxitektura va qurilish instituti
arkitektura fanlari doktori, professor D.A.Nazilov

MRDI Mahobatli rangtasvir kafedrasi mudiri:
Sh.R.Jumaniyazov

KIRISH

5150800-Rangtasvir: turlari bo'yicha 5150801-Rangtasvir (dastgohli), 5150802-Rangtasvir (mahobatli rangtasvir), 5150803-Rangtasvir (teatr-bezak rangtasviri), 5150804-Rangtasvir (filmning tasviriy yechimi), 5150805-Rangtasvir (multfilm va kompyuter multiflikatsiyasi), 5111000-Kasb ta'limi: 5111032- Rangtasvir (dastgohli) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitiladigan fanlarning dolzarbligi, jamiyatni demokratlashtirish va O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda mo'ljallangan 5 ustivor yo'nalishlari bo'yicha "Harakatlar strategiya"sining 4-yo'nalish "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" tamoyillari asosida isloh qilishdagi ahamiyati va o'rni ochib beriladi.

"Chizmatasvir", "Rangtasvir", "Kompozitsiya" fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dasturi DTS, malaka talablari asosida ishlab chiqilgan. Respublikamizda badiiy ta'lim islohatlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar; rangtasvirchi rassom, mahobatli rangtasvir, teatr, kino, filmning tasviriy yechimi, telekursatuvlar, multfilm va qo'g'irchoq teatri rassomlari kadrlarini tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarni rivojlantiruvchi shuningdek, iqtidorli ijodkor rassom, ko'nikmalarini o'zida namoyon qiluvchi va ushbu sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishini topishda mazkur fanlar katta ahamiyatga ega.

1. Fanning maqsad va vazifalari.

"Chizmatasvir", "Rangtasvir", "Kompozitsiya" fanlarni o'rganishdan maqsad abiturientlarga turli chizmatasvirlarning kompozitsion yechimini topish borasida bilim berish hamda chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiyalarning har tomonlama chizish usullarini o'rgatishga muvofiq. Chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarining vazifasi zamon talabiga qarab, ijodkor rassomlar, rassom bezakchilar va boshqa malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashdan iborat.

2. Abiturient bilimiga qo'yiladigan talablar.

1. Chizmatasvir fanidan "Odam portreti qo'llari bilan" uslubiy fonda qo'yiladi. Odam portretini qo'llari bilan chizish orqali uning tashqi ko'rinishga holatiga hamda qomatning anatomik tuzilishiga e'tibor qilish. Bundan tashqari qomatning plastik yechimiga hamda uning harakterlarini ochib berishga harakat qilish, soya-yorug' tomonlariga yengil tuslar berish va bu bilan chizmatasvirdagi ketma-ketlikka rioya etishdan iboratdir. Shu sababli chizmatasvirni juda katta e'tibor bilan nozik did asosida chizish talab qilinadi. Abiturientlar topshiriqni hajmi 60x80 bo'lgan planshetga tortilgan vatmanga bajarishi kerak.

2. Rangtasvir fanidan "Odam portreti qo'llari bilan" rangli bo'yoqlar yordamida ishlanadi. "Odam portreti qo'llari bilan" qo'yilgan modelni ishslashda ranglar orqali uning tashqi ko'rinishga holatiga hamda qomatning anatomik tuzilishiga e'tibor qilish. Bundan tashqari qomatning plastik yechimiga hamda uning xarakterlarini ochib berishga harakat qilish, ranglar orqali tuslarga ajratish, issiq va sovuq ranglarga e'tibor

qilish hamda ranglar uyg‘unligini saqlagan holda, rangtasvirda ketma-ketlikka rioya etishdan iboratdir. Abiturientlar topshiriqni hajmi 60x80 bo‘lgan matoga moybo‘yoq orqali yoki akril, akvarel, guash, tempera tarshon, vatmanda bajarishi mumkin.

3. Kompozitsiya fanidan abiturient topshiriqni ashyoda ishlashni erkin tanlaydi. Berilgan mavzu bo‘yicha bajaradi. Kompozitsiya g‘oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi, kompozitsiya yechimini mavzu asosida topilganligi, badiiy va g‘oyaviy ifodada chizmatasvir va ranglar vositasidan foydalanish darajasi, shakl va obrazlar plastik yechimini topilganligi, kompozitsion vazifasidagi asar chuqurligining perspektiv yechimi, kompozitsiya markazining ifodali topilganligi, mavzuning mazmuni va g‘oyasini olib berishda koloritdan foydalaniishi, kompozitsiyada mazmun, g‘oya-fikrning yoritilishi va tugallanish darajasi kabi masalalarini yoritib berish talab etiladi. Abiturientlar topshiriqni xajmi 40x60 bo‘lgan planshetga bajarishi kerak.

2019-2020 o‘quv yili qabulida 5150801-Rangtasvir (dastgohli), 5150802-Rangtasvir (mahobatli rangtasvir), 5150803-Rangtasvir (teatr-bezak rangtasviri), 5150804-Rangtasvir (filmning tasviriy yechimi), 5150805-Rangtasvir (multfilm va kompyuter multiflikatsiyasi), 5111000-Kasb ta’limi: 5111032- Rangtasvir (dastgohli) ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga kiruvchi abiturientlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni quyidagi fanlar bo‘yicha topshiradilar.

Nº	Fan nomi	Imtihon balli
1.	Chizmatasvir	63
2.	Rangtasvir	33
3.	Kompozitsiya	93
	Jami	189

**“Chizmatasvir” fani
Odam portreti qo’llari bilan
Ijodiy imtihon bo‘yicha “Chizmatasvir” faniga ajratilgan vaqt**

Fanining nomi	Topshiriqlar	Berilgan vaqt
Chizmatasvir	Odam portreti qo’llari bilan	8 soat

Abiturient topshiriqni, qog’oz (vatman) ishlaydi.

Chizmatasvir 63 ball

Ijodiy (kasbiy) imtihonda abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi.

Nº	Baholash mezonlari	To‘liq javob uchun ball
1.	Naturani kompozitsion joylashuvi	6,3 ball

2.	Proporsiyalarni to‘g‘ri topilishi	6,3 ball
3.	Rakurs holatining topilish darajasi	6,3 ball
4.	Natura qismlarining o‘zaro nisbiy joylashuvi	6,3 ball
5.	Yorug‘ va soyani ishlanishidagi mahorati	6,3 ball
6.	Plastik anatomiyaning odam qomatiga mosligi	6,3 ball
7.	Tasvir naturaga o‘xshashligi harakterli xususiyatini topilganligi	6,3 ball
8.	Naturaning perspektiv (fazoviy) holati	6,3 ball
9.	Naturaning atrof muhit bilan bog‘langanligi	6,3 ball
10.	Chizmatasvirning tugallanish darajasi	6,3 ball

“Rangtasvir” fani

Odam portreti qo’llari bilan

Ijodiy imtihon bo‘yicha “Rangtasvir” faniga ajratilgan vaqt

Fanining nomi	Topshiriqlar	Soat
Rangtasvir	Odam portreti qo’llari bilan	8 soat

Abiturient topshiriqni, matoga moybo‘yoq (qog’ozga suv bo‘yoq) orqali ishlaydi.

Rangtasvir 33 ball

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi.

№	Baholash mezonlari	To‘liq javob uchun ball
1.	Naturaning kompozitsion joylashuvi	3,3 ball
2.	Proporsiyalarni to‘g‘ri topilishi	3,3 ball
3.	Rakurs va fazoviy holatining ishlanish darajasi	3,3 ball
4.	Ranglar bilan ishlash jarayonida yorug‘- soyalarining bir-biriga mutanosibligi	3,3 ball
5.	To‘q va och tuslarning to‘g‘ri topilganlik darajasi	3,3 ball
6.	Issiq va sovuq ranglarning uyg‘unlashuv darajasi	3,3 ball
7.	Naturani ranglar orqali atrof muhit bilan uzviy bog‘langanligi	3,3 ball
8.	Ranglarning o‘zaro mutanosibligi va yaxlitligi darajasi	3,3 ball
9.	Ranglarni perespektivadan o‘zgarish holati	3,3 ball
10.	Rangtasvirning tugallanish darajasi	3,3 ball

“Kompozitsiya” fani
Berilgan mavzu

Ijodiy imtihon bo‘yicha “Kompozitsiya” faniga ajratilgan vaqt

Fanining nomi	Topshiriqlar	Berilgan vaqt
Kompozitsiya	Berilgan mavzu	8 soat

Abiturient topshiriqni, ashyoda ishlashni erkin tanlaydi.

Kompozitsiya 93 ball

Ijodiy (kasbiy) imtihonda abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi.

Berilgan mavzu bo‘yicha maksimal 93 ball

Nº	Baholash mezonlari	To‘liq javob uchun ball
1.	Berilgan kompozitsiya ishlanadigan sathga qog'ozni to'g'ri tortilganligi	9,3 ball
2.	Kompozitsiya mavzu jihatdan original topilganligi	9,3 ball
3.	Asarning kompozitsion g'oyaviy mazmuni	9,3 ball
4.	Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi	9,3 ball
5.	Badiiy va goyaviy ifodada ranglardan to‘g’ri foydalanish	9,3 ball
6.	Asar qahramoning obrazini plastik yechim orqali topish	9,3 ball
7.	Tasvirning ta’lim yo‘nalishiga mosligi	9,3 ball
8.	Kompozitsiya markazini to‘g’ri topilganligi	9,3 ball
9.	Mavzuning mazmuni, ma’nosи, hamda ranglar uyg’unligi	9,3 ball
10.	Ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasi	9,3 ball

3.Kasbiy (Ijodiy) imtihonlarni o’tkazish tartibi

5150800-Rangtasvir turlari bo‘yicha: 5150801-Rangtasvir (dastgohli), 5150802-Rangtasvir (mahobatli rangtasvir), 5150803-Rangtasvir (teatr-bezak rangtasviri), 5150804-Rangtasvir (filmning tasviri yechimi), 5150805-Rangtasvir (multfilm va kompyuter multiflikatsiyasi), 5111000-Kasb ta’limi: 5111032- Rangtasvir (dastgohli) ta’lim yo‘nalishlariga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda 24 akademik soat (astronomik 18 soat) vaqt davomida chizmatasvir fanidan “Odam portreti qo’llari bilan” qo’yilmasini, rangtasvirda ham “Odam portreti qo’llari bilan” va kompozitsiyadan berilgan mavzu asosida bajaradilar. Ijodiy imtihonlar **9⁰⁰** dan **12⁰⁰** gacha va **13⁰⁰** dan **16⁰⁰** gacha davom etadi. Qabul komissiyasi tominidan shakllantirillgan guruqlar asosida abituriyentlardan iborat bo‘lib ijodiy imtihon guruqlar

bo'yicha o'tkaziladi. Ijodiy kasbiy imtihonlar maxsus o'quv qurollari bilan jihozlangan o'quv ijodiy ustaxonalarda o'tkaziladi.

1. Chizmatasvir. Badiiy akademik maktab an'analari asosida odam portreti qo'llari bilan ishslash, naturani shakli, plastikasini chuqur tahlil qilinishi, naturani joylashtirish jarayonida atrof muhitni inobatga olinishi, predmetlar proporsiyasi katta va kichik hajm ko'rinishlariga ahamiyat berilishi va chizmatasvirni juda katta e'tibor bilan nozik did asosida tasvirlanadi.

2. Rangtasvir. Badiiy akademik maktab an'analari asosida odam portreti qo'llari bilan ishslash, issiq sovuq ranglardan to'g'ri foydalanish, naturani joylashtirish jarayonida atrof muhit inobatga olinishi kerak bo'ladi. Naturani moybo'yoq uslubida bo'lganligi sababli issiq sovuq ranglar yordamida natura tasvirlanadi.

3. Kompozitsiya fanidan abiturient topshiriqni ashyoda ishslashni erkin tanlaydi. Berilgan mavzu bo'yicha bajarishi kerak bo'ladi.

Abiturientlar ijodiy ishlarini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Chizmatasvirdan bajarilgan har bir ishga 10 ta mezon asosida baholanadi, rangtasvirdan 10 ta mezon asosida baholanadi, kompozitsiyadan 10 ta mezon asosida baholanadi, bu mezonlar asosida sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari bajargan ishning hajmi va sifatiga qarab chizmatasvir fani bo'yicha jami 63 ball, har bir mezonga to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, maksimal 6,3 ball.

Rangtasvir fani bo'yicha jami 33 ball, har bir mezonga to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, maksimal 3,3 ball.

Kompozitsiya fani bo'yicha 93 ball. Berilgan mavzuga har bir mezonga to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, maksimal 9,3 ball.

Har bir fan bo'yicha sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari 3 nafarni tashkil etadi va ular (mutaxassislik) kafedrasi professor-o'qituvchilar tarkibidan jalb etiladi.

4. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha "Apellyatsiya" tartibi

Abiturientlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishslash ha'yatiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari bo'yicha tushgan norozilik (apellyatsiya) arizalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan 24 soat davomida ko'rib chiqiladi. Murojaat mazmunida faqat o'zining ijodiy ishlari va ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abiturientlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asos: Vazirlar mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-sonli qarorining 1-ilovasida keltirilgan "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi NIZOMI.


Uslubiy ko'rsatmalardan namunalar

CHIZMATASVIR FANI

5150800-Rangtasvir: turlari bo'yicha 5150801-Rangtasvir (dastgohli), 5150802-Rangtasvir (mahobatli rangtasvir), 5150803-Rangtasvir (teatr-bezak rangtasviri), 5150804-Rangtasvir (filmning tasviriy yechimi), 5150805-Rangtasvir (multfilm va kompyuter multiflikatsiyasi), 5111000-Kasb ta'limi: 5111032- Rangtasvir (dastgohli)

Vazifa: Portret qo'llari bilan.

Namunalar:




RANGTASVIR FANI

5150800-Rangtasvir: turlari bo'yicha 5150801-Rangtasvir (dastgohli), 5150802-Rangtasvir (mahobatli rangtasvir), 5150803-Rangtasvir (teatr-bezak rangtasviri), 5150804-Rangtasvir (filmning tasviri yechimi), 5150805-Rangtasvir (multfilm va kompyuter multiflikatsiyasi), 5111000-Kasb ta'limi: 5111032- Rangtasvir (dastgohli)

Vazifa: Portret qo'llari bilan.

Namunalar:





KOMPOZISIYA FANI

5150800-Rangtasvir turlari bo'yicha: 5150801-Rangtasvir (dastgohli), 5150802-Rangtasvir (mahobatli rangtasvir), 5150803-Rangtasvir (teatr-bezak rangtasviri), 5150804-Rangtasvir (filmning tasviriy yechimi), 5150805-Rangtasvir (multfilm va kompyuter multiflikatsiyasi), 5111000-Kasb ta'lifi: 5111032- Rangtasvir (dastgohli)

Vazifa: Berilgan mavzu

Namunalar:



5150804-Rangtasvir (filmning tasviriy yechimi)

Vazifa: Berilgan mavzu

Namunalar:



5150805-Rangtasvir (multfilm va kompyuter multiflikatsiyasi)

Vazifa: Berilgan mavzu

Namunalar:

